

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

DJALILOVA UMIDA TULKINOVNA

**ABDULLA QAHHOR VA SOMERSET MOEM ASARLARI TILINING
MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI: ASLIYAT VA TARJIMA**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора филологии (PhD)
по педагогическим наукам**

**The contents of dissertation abstracts of Doctor of Philology (PhD)
in pedagogical sciences**

Djalilova Umida Tulkinovna

Abdulla Qahhor va Somerset Moem asarlari tilining milliy-madaniy xususiyatlari:
asliyat va tarjima3

Djalilova Umida Tulkinovna

Национально-культурные особенности языка произведений Абдуллы
Каххара и Сомерсета Моэма: оригинал и перевод25

Djalilova Umida Tulkinovna

National-cultural Features of the Language of Works by Abdulla Qahhor and
Somerset Maugham: Originality and Translation.....49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works54

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

DJALILOVA UMIDA TULKINOVNA

**ABDULLA QAHHOR VA SOMERSET MOEM ASARLARI TILINING
MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI: ASLIYAT VA TARJIMA**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Fil2934 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz) O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti veb-sayti (www.uzswlu.uz) hamda "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Sadiqov Zohid Yaqubjanovich
Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Xomidov Xayrilla Xudoyorovich
Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat chet tillar instituti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi DSc 03/30.12.2019.Fil.27.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "8" aprel soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100138, Toshkent sh., Kichik halqa yo'li ko'chasi, G-9A mavzesi, 21-uy. Tel.: (71) 230-12-91; faks: (99871) 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (116 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent sh., Kichik halqa yo'li ko'chasi, G-9A mavzesi, 21-uy. Tel.: (71) 230-12-91; faks: (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "24" mart kuni tarqatildi.

(2025-yil "24" mart dagi 5 raqamli reyestr bayonnomasi).



I.M. Tuxtasinov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, ped.f.d., professor

X.B. Samigova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

J.A. Yakubov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi
filol.f.d., professor

KIRISH (falasafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon lingvistikasida til borliqning in'ikosi, barcha tabiiy-ijtimoiy hodisalarni o'zida aks ettiruvchi murakkab ijtimoiy hodisa sifatida tadqiq qilinadi. Atrof-olam hodisalari muayyan tillarda turli-tuman aks etishi va har birining alohida tabiiy-ijtimoiy xususiyati, doimiy evrilishda ekanligi, til hodisalarining o'ziga xos shakl va mazmuni, o'rin va vazifasi ularni qiyosiy-chog'ishtirma, xususan, tarjimashunoslik yo'nalishida o'rganishni taqozo etadi. Natijada, tillar leksikasining qiyosiy tadqiqi, badiiy adabiyotda aks etgan ona tili leksikasini boshqa tillar bilan solishtirib tahlilga tortish, shu qatorda, madaniy-ijtimoiy hodisa va munosabatlarning tarjimada to'g'ri talqin etilishi, bir, ikki va ko'p tilli lug'atlar tuzish hamda tarjimaning asliyat bilan uyg'unlashuvi muammolari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo tilshunosligida muayyan til hodisalarini tahlil qilish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari doirasida sun'iy intellektning lingvistik ta'minotini yaratish, tarjimalarni mukammallashtirish, tarjimaning sotsiolingvistika, lingvokognitivistika, lingvomadaniyatshunoslik kabi fanlar bilan bog'lab o'rganish, izohli va sohaga oid lug'atlar tuzish kabilar jadal olib borilmoqda. Hozirda millatlararo xalqarolashuv, integratsiyalashuvning rivojlanib borayotganligi, ayniqsa, tillar kesimida ham fundamental tadqiqotlarni amalga oshirishni talab etmoqda. Shu jihatdan, til va madaniyat masalalari, har bir xalq badiiy adabiyotida o'z milliy-madaniy xususiyatlarining ifodalanishi, ularning tarjimada adekvatligini ta'minlash masalalari, ushbu yo'nalishlarda ilmiy tadqiqot ishlarini takomillashtirish zarurati kun tartibida qolmoqda.

Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga ochiqligi, islohotlar davrida axborot almashish ko'lamining tobora kengayib borishi, umumjahon globallashuviga faol kirib borishi natijasida nafaqat xorijiy tillarni o'qitish va o'rganishga bo'lgan ehtiyoj oshmoqda, balki tarjimashunoslik fani bo'yicha turli tadqiqotlar, shu asnoda mukammal tarjima asarlar yaratilish ko'lami oshmoqda, jumladan, "har yili dunyoda eng ko'p mutolaa qilingan, shuningdek, davlatimiz tadrijiy rivojlanishiga taalluqli 100 ta eng yaxshi badiiy asarlarni tarjima qilish va kutubxonalarga yetkazish"¹ bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Bunda, o'zbek tilining leksik, metaforik va paremiologik fondini ingliz tili bilan chog'ishtirish, chet el adabiyotidagi etnoslarga xos madaniy kodlar, leksik va frazeologik birliklar pragmatikasi, asl va tarjima matnlarni tanqidiy o'rganish hamda mukammallashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb sanalmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-sonli "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli "O'zbekiston respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.02.2024-yildagi PF-37-sonli "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni // <https://www.lex.uz/uz/docs/-6811936>

yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi 312-sonli “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 19-yanvardagi 34-sonli “Xorijiy tillarni o‘rganishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda qayd etilgan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining: “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tilning lug‘at boyligi masalalari doimo olimlar diqqat e‘tiborida bo‘lgan. O‘zbek tilshunosligida tarjimashunoslik rivojiga G‘.Salomov, Q.Musayev, N.Qambarov, A.Nurmonov, N.Mahmudov, M.Xolbekov, Sh.Safarov, I.Tuxtasinov, X.Xomidov, Z.Teshaboyeva, U.Yo‘ldoshev kabi qator olimlar salmoqli hissa qo‘shganlar. Jumladan, badiiy matn tahlilida til va madaniyat muammolari, asar bitilgan til matni tarjimasida yangilanish va o‘zgarishlar sodir bo‘lishi, turli tizimli tillar madaniy kodlarining adekvat variantlarini topish masalalari N.Qambarov, D.Baxronova, G.Amanova, T.Alimov kabi qator olimlar tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Tarjima transformatsiyalarining lingvokulturologik hamda kognitiv xususiyatlari O.Mo‘minov va N.Qambarov, tarjimashunoslikning zamonaviy o‘qitishdagi dolzarb muammolari I.Tuxtasinov, Bobur asarlarining ingliz tiliga qilingan tarjimalarining qiyosiy-chog‘ishtirma tahlili Z.Teshaboyeva, hajviy matnlar tarjimasining lingvostilistik va lingvokulturologik xususiyatlari U.Yo‘ldoshev va ijtimoiy-siyosiy so‘zlarning tarjimadagi lingvokulturologik aspekti G.Amanova tomonidan tadqiq etilgan². Tarjimaning milliy-madaniy xususiyatlariga oid:

² Саломов Ф. Тил ва таржима (бадий таржиманинг умумфилологик ва баъзи лингвистик масалалари). – Тошкент: Фан, 1966. – 385 б.; Саломов Ф., Комилов Н. Дўстлик кўприклари (Поэзия ва таржима). – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – 224 б.; Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Фан, 2005. – 352 б.; Қамбаров Н.М. Таржима трансформацияларининг лингвокултурологик ва когнитив хусусиятлари. Монография. – Тошкент, 2019. – 158 б.; Нурмонов А. Оврупода умумий ва қиёсий тилшуносликнинг майдонга келиши. – Тошкент, 2012. 2-жилд. – Б. 23-40; Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўлларини излаб ... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. 5-сон. – Б. 3-16; Холбеков М. Жаҳон таржимачилиги анъаналари. Рисола. – Тошкент: Наврўз ДУК, 2016. – 116 б.; Сафаров Ш. Таржимашуносликнинг когнитив асослари. – Тошкент: Наврўз, 2019. – 300 б.; Tuxtasinov I.M. Tarjimon tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish (ekvivalentlik hodisasi asosida). Ped.fan.d.diss. – Toshkent, 2018; Xomidov X. Abdulla Qahhor uslubini tarjimada qayta yaratish masalalari: monografiya. Toshkent: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2024. –140 b.;Тешабоева З. “Бобурнома”нинг инглизча таржималаридаги фразеологик бирликлар ва уларнинг миллий-маданий хусусиятлари. Филол. фан. ном. дисс. – Тошкент, 2017. – 158 б.; Йўлдошев У.Р. Ҳажвий матнлар таржимасининг лингвостилстик ва лингвокултурологик хусусиятлари (инглиз тилига таржима қилинган ўзбек халқ латиқалари мисолида). Филол. фан. д-ри дисс. – Т., 2017. – 45 б.; Бахронова Д.К. Антропозооморфизмларнинг семантик ва лингвокултурологик хусусиятлари (ўзбек ва испан тиллари материалида). Филол.фан. бўйича фалсафа д-ри дисс. – Тошкент, 2017. – 152 б.; Амонова Г.Т.

tarjimaning aniqlik mezonlari T.Alimov, olam milliy manzarasining “Boburnoma” matnidagi antroponim va toponimlarning ingliz tiliga tarjima qilish tamoyillari M.Muminova, tarjimada olam milliy manzarasini qayta yaratishda lisoniy omillar masalasi R.Shirnova ishlarida yoritilgan³.

Xorij olimlaridan V.Fon.Humbolt, E.Sepir; V.Teliya, A.Potebnya, V.Karasik, V.Maslova, S.Vorkachyov, V.Vorobyev, V.Krasnix, Z.Sabitova, G.Bagirova, V.Jirmunskiy, Yu.Lotmanlar tilning semantik va milliy-madaniy xususiyatlarini o‘rganganlar. Badiiy tarjimaga xos xususiyatlar P.Nyumark, M.Beyker, T.Xerman, M.Jeremy, T.Parks, D.Shen, J.Vinay, J.Darbelnet, M.Vinters, A.Fedorov, Ya.Resker, L.Barxudarov, T.Leviskaya, A.Fiterman, V.Komissarov kabi qator olimlar izlanishlarida o‘rganilgan⁴. Masalan, Ye.Ivanova tarjima jarayonida stilistik usullar konvergentsiyasini, T.Fesenko va boshqalar verbal birliklar konseptual mazmunining tarjimadagi bayonini o‘rganishgan⁵.

Abdulla Qahhor va Somerset Moem asarlarini chog‘ishtirib, bu ikki buyuk adib asarlari tilining tarjima jarayonida uchraydigan o‘ziga xos milliy-madaniy xususiyatlari va ularni modulyatsiya, kalkalash kabi usullar orqali o‘quvchiga

Ижтимоий-сиёсий лексиканинг лингвокултурологик аспекти (инглиз, рус ва ўзбек тиллари мисолида). Филол. фан. б.ф. д-ри. – Т., 2018. – 169 б.; Алимов Т.А. Бадий таржимада гендер аспектининг қиёсий-типологик тадқиқи (“Ўткан кунлар” романи таржималари мисолида). Филол. фан. б.ф. д-ри. – Термиз, 2023. – 13 б.; Мўминов О.М. Guide to Simultaneous Translations. – Т., 2005.

³Алимов Т.А. Бадий таржимада гендер аспектининг қиёсий-типологик тадқиқи (“Ўткан кунлар” романи таржималари мисолида). Филол. фан. б.ф. д-ри. – Термиз, 2023. – 13 б.; Мўминова М.О. “Бобурнома” матни таржималарида антропоним ва топонимларнинг лингвокултурологик хусусиятлари (“Бобурнома” матнининг инглизча таржималари мисолида). Филол. фан. д-ри дисс. – Т., 2021. – 17 б.; Ширинова Р.Х. Олам миллий манзарасининг бадий таржимада қайта яратилиши. Филол.фан. д-ри.дисс. – Т., 2017. – 85 б.

⁴ Гумбольдт В. Фон о различии строения человеческих языков и влияния на духовное развитие человечества. избранные труды по языкознанию. – Москва, 1984. – 137 с.; Сепир Э. The status of linguistics as a science // Language. – Baltimore, 1929. Vol. 5. – P. 207-214; Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокултурологический аспекти. – Москва: Языки русской культуры, 1996. – 288 с.; Потебня А.А. Эстетика и поэтика. – Москва: Искусство, 1976. – 112 с.; Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград, 2002. – 477 с.; Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. – Минск: ТетраСистемс, 2008. – 90 с.; Воркачёв С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // Филологические науки. – Москва, 2001. – № 1. – С. 64-72; Воробьев В.В. Лингвокультурология: теория и методы. – Москва, 1997. – 264 с.; – № 6. – С. 26-38; Красных В.В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология. – Москва: Гнозис, 2002. – 284 с.; Сабитова З.К. Лингвокультурология. Учебник. – Москва: Флинта: Наука, 2013. – 164 с.; Багирова Г.Ф. Лингвокултурологический аспект языковой личности в англоязычном художественном дискурсе. Автореф. дис... д-ра филол. наук. – Баку, 2016. – 43 с.; Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. – Москва, 1974. – 164 с.; Белдиян В.М. Введение в переводоведение. – Омск, 2009. – 136 с.; Фитерман А., Левицкая Т.Р. Пособие по переводу с английского языка на русский. – Москва: Высшая школа, 1973. – 136 с.; Комиссаров В.Н. Лингвистика перевода. – Москва: Междунар. отношения, 1980. – 167 с.; Швейцер А.Д. Перевод и лингвистика (Газетно-информационный и военно-публицистический перевод). – Москва: Воениздат, 1973. – 280 с.; Розенцвейг В.Ю. Основы общего и машинного перевода. – Москва: Высшая школа, 1964. – 243 с.; Латышев Л.К. Курс перевода: Эквивалентность перевода и способы ее достижения. – Москва: Международ. отношения, 1981. – 248 с.; Гарбовский Н.К. Теория перевода. Учебник. – Москва: Моск. ун-та, 2004. – 544 с.; Гусев В.В. Эмпатическая модель в формировании стратегии перевода // Вестн. МГЛУ. – М., 2003. Вып. 480. Перевод как когнитивная деятельность. – С. 26-41.

⁵ Иванова Е.В. Когнитивный аспект перевода стилистических конвергенции. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Челябинск, 2006. – 18 с.; Фесенко Т.А., Нефедова А.И. и др. Теория и практика перевода: традиционные и новые парадигмы знаний. – Тамбов, 2003. – 248 с.; Фесенко Т.А. Креативность и проблема перевода // Вопр. Когнитивной лингвистики, 2005. – № 1. – С. 49-53.

yetkazib berish kabilar haligacha o'rganilmaganligi mazkur tadqiqotning boshqa ishlardan farqli jihatlaridir.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining 2021-2024-yillarga mo'ljallangan "Tilshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb masalalari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Abdulla Qahhor va Somerset Moem asarlaridagi lisoniy birliklarning asl matn hamda tarjimalaridagi lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

badiiy matnda uchraydigan lingvomadaniy birliklarning chog'ishtirma tadqiqi va ular tarjimasining milliy-madaniy xususiyatlarini tarjimaning pragmatik tamoyili orqali yoritish;

Abdulla Qahhor va Somerset Moem asarlari asosida badiiy matndagi lisoniy birliklarning o'xshash hamda farqli jihatlarini aniqlash;

Abdulla Qahhor va Somerset Moem asarlarining tarjimalarini chog'ishtirib o'rganish asosida tarjima mukammalligiga xizmat qiluvchi takliflarni ishlab chiqish;

chog'ishtirilayotgan tillarda madaniy kodlarning kommunikativ vazifasini aniqlash, asliyatdagi ma'noning tarjimada moslashtirishdagi samarador usullarni Abdulla Qahhor va Somerset Moem asarlaridan olingan faktik misollar orqali asoslash.

Tadqiqotning obykti sifatida Abdulla Qahhorning "O'tmishdan ertaklar", "Adabiyot muallimi", "Anor", "Dahshat", "Mayiz yemagan xotin", "O'g'ri" va Somerset Moemning "Yomg'ir", "Teatr", "Oy va chaqa", "Bo'yalgan parda", "Insoniy ehtiroslar zalvori" kabi asarlari matndagi milliy-madaniy xususiyatlarga ega bo'lgan til birliklarining asli va tarjimasini tanlangan.

Tadqiqotning predmetini Abdulla Qahhor va Somerset Moem asarlarining asliyat hamda tarjimasidagi lisoniy birliklarning tarjima aspektidagi lingvomadaniy xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda qiyosiy-chog'ishtirma, komponent tahlil, statistik va kontekstual-situativ kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

tarjimaning pragmatik tahlillari orqali Abdulla Qahhor va Somerset Moem ijodida qamrab olingan zamon, makon, eksplitsit va implitsit nutq, qahramonlarning faoliyat sohasi va ijtimoiy maqomi ilk bor ikki adib asarlari asosida chog'ishtirilib, til va madaniyat sohiblarining arxetipik tasavvurlari orqali shakllangan milliy tushunchalardagi farqlarning keskin o'ziga xosligi dalillangan;

Abdulla Qahhor va Somerset Moem asarlarida "ellikboshi", "mingboshi" "shariat", "hoji", "jiyak", "nomahram"; "pound", "mile", "wisky", "cocktail", "state", "cowboy" kabi lisoniy birliklar tegishli jamiyatning lisoniy va milliy-madaniy manzaralarini o'ziga xos qamrab olishi muayyan madaniy hamda ijtimoiy

davrga oid tasvirlar orqali qahramonlarning lisoniy tafakkuri voqelanishi negizida asoslangan;

bir zamon va turli makonga mansub ijodkorlar asarlarida qo‘llanilgan lisoniy birliklarning etimologik hamda milliy-madaniy xususiyatlari va o‘ziga xos semantikaga egaligi muqobillik uchun tavsiya etilgan variantlarning adekvatlikka erishish darajasi asosida aniqlangan;

“Dahshat”, “O‘tmishdan ertaklar” va “Yomg‘ir”, “Teatr” kabi asarlarda madaniy kodlar nafaqat madaniy ma‘no, balki pragmatik ma‘no ifodalash xususiyatiga egaligi, uning kontekstual va perlokutiv ta‘sir samaradorligi, asosan, kommunikativ maqsad-muddaoning konstativ guruhiga mansubligi, unda maslahat, buyruq, kesatiq, ogohlantirish kabi intensional ottenkalar mavjudligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Abdulla Qahhorning “Dahshat”, “Mayiz yemagan xotin”, “O‘g‘ri” va “Ming bir jon” (Djalilova U. “Some Short Stories by Abdulla Qahhor”. Toshkent, 2024.) hikoyalari ingliz tiliga tarjima qilingan hamda nashr ettirilgan;

Somerset Moemning “Yomg‘ir” hikoyasi asosida chog‘ishtirma lug‘at dissertatsiyaga ilova qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda jalb etilgan nazariy ma‘lumotlarning ishonchli manbalardan olingani, qo‘llanilgan yondashuv usullari, keltirilgan tahlil, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Abdulla Qahhor va Somerset Moem asarlari asosida milliy-madaniylik aks etgan leksemalar, muayyan til doirasidagi ijtimoiy rolning o‘ziga xosligi, olamning lisoniy va milliy-madaniy manzaralari voqelanishida so‘zlar hamda ularning tarjimasini bilan bog‘liq jihatlarning o‘rganilganligi mazkur masala bo‘yicha mavjud ma‘lumotlarni to‘ldiradi va tadqiqotda ilgari surilgan xulosalardan tarjimashunoslik hamda chog‘ishtirma tilshunoslik yo‘nalishlaridagi izlanishlarda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, undan oliy o‘quv yurtlarida “Tarjimashunoslik”, “Chog‘ishtirma tilshunoslik” va “Lingvomadaniyatshunoslik” fanlari bo‘yicha ma‘ruza hamda seminar mashg‘ulotlarini olib borishda, leksikografiya amaliyotida inglizcha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-inglizcha so‘z va iboralar lug‘atlarini tuzishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Somerset Moem va Abdulla Qahhor asarlari asosida ingliz hamda o‘zbek adabiy matnlari va ular tarjimasida uchraydigan lingvokulturologik birliklarning tadqiqi hamda tahlili, milliy-madaniy o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlashtirish jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

tarjimaning pragmatik tahlillari orqali Abdulla Qahhor va Somerset Moem ijodida qamrab olingan zamon, makon, eksplitsit va implitsit nutq, qahramonlarning faoliyat sohasi va ijtimoiy maqomi ilk bor ikki adib asarlari asosida chog‘ishtirilib, til va madaniyat sohiblarining arxetipik tasavvurlari orqali

shakllangan milliy tushunchalardagi farqlarning keskin o'ziga xosligi dalillanganiga oid ilmiy-nazariy xulosalardan Yevropa Ittifoqining ERASMUS+ dasturi doirasida Latviyaning Rezekna texnologiyalar Akademiyasi, Angliyaning London Metropolitan universiteti bilan hamkorlikda amalga oshirilgan "561624-EPP-1-1-UK-EPPIKA2-CBHE-SP IMEP" mavzusidagi xalqaro loyihada foydalanilgan (O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2023-yil 14-iyundagi IRD/21-sonli ma'lumotnomasi). Natijada Abdulla Qahhor va Somerset Moemning individual-mualliflik manzarasidagi o'ziga xos tasvirlar, madaniy kodlarning o'zbek/ingliz tillariga tarjimasiga doir muammo va yechimlar loyiha mazmunini boyitishga xizmat qilgan;

Abdulla Qahhor va Somerset Moem asarlarida "ellikboshi", "mingboshi" "shariat", "hoji", "jiyak", "nomahram"; "pound", "mile", "wisky", "cocktail", "state", "cowboy" kabi lisoniy birliklar tegishli jamiyatning lisoniy va milliy-madaniy manzaralarini o'ziga xos qamrab olishi muayyan madaniy hamda ijtimoiy davrga oid tasvirlar orqali qahramonlarning lisoniy tafakkuri voqelanishi negizida asoslangani borasidagi xulosalardan Meksika davlat avtonom universiteti va O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'rtasidagi xalqaro Memorandumda qayd etilgan o'zaro ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirish bandi vazifalarini bajarishda foydalanilgan (Meksika davlat avtonom universitetining 2023-yil 3-noyabrdagi 521-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ikki tilda tahsil olayotgan talaba va tadqiqotchilarning lingvomadaniyatshunoslik, tarjimashunoslik bo'yicha nazariy hamda amaliy bilimlarini boyitishda muhim manba vazifasini o'tagan;

"Dahshat", "O'tmishdan ertaklar" va "Yomg'ir", "Teatr" kabi asarlarda madaniy kodlar nafaqat madaniy ma'no, balki pragmatik ma'no ifodalash xususiyatiga egaligi, uning kontekstual va perlokutiv ta'sir samaradorligi, asosan, kommunikativ maqsad-muddaoning konstativ guruhiga mansubligi, unda maslahat, buyruq, kesatq, ogohlantirish kabi intensional ottenkalar mavjudligi isbotlanganiga oid taklif va mulohazalardan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan o'tkazilgan "O'zbek adabiyoti namunalarini xorijiy tillarga tarjima qilish va xalqaro miqyosda targ'ib etish muammolari" mavzusidagi xalqaro seminar ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2024-yil 9-yanvardagi 01-03/27-son ma'lumotnomasi). Natijada o'zbek va ingliz nasriy asarlari milliy til xususiyatlarining noan'anaviy uslublari, xususan, tarjimalarni chog'ishtirib o'rganish orqali tarjima mukammalligiga erishishda xizmat qiluvchi lisoniy birliklar taklif qilingan;

bir zamon va turli makonga mansub ijodkorlar asarlarida qo'llanilgan lisoniy birliklarning etimologik hamda milliy-madaniy xususiyatlari va o'ziga xos semantikaga egaligi muqobilik uchun tavsiya etilgan variantlarning adekvatlikka erishish darajasi asosida aniqlanganiga oid xulosalardan "O'zbekiston" teleradiokanalida efirga uzatilgan "Ta'lim va taraqqiyot", "O'zbekiston yoshlari" nomli dasturlar ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2023-yil 31-iyuldagi 04-36-1142-sonli ma'lumotnomasi). Natijada etnoslar og'zaki, ma'naviy meros namunalarini yoritishda til birliklarining o'ziga xosligini namoyon etish orqali iboralar, turg'un

birikmalar ma'nosini tahlilga tortish, ularning pragmatik ma'nosini anglash, tarjima qilish va qo'llash strategiyasi hamda bosqichlarini takomillashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

Natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, shundan, 5 tasi respublika hamda 3 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan va 2 ta xalqaro, 3 ta Respublika miqyosida tezislar nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va ilovadan tarkib topgan bo'lib, umumiy hajmi 131 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning **Kirish** qismida ilmiy tadqiqot mavzusi va uning dolzarbligi asoslangan bo'lib, tadqiqot ishining maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, ilmiy ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatib o'tilgan. Shu bilan birga, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi, tuzilishi, amaliy natijalari va ularning ishonchliligi, ishning nazariy va amaliy ahamiyati, erishilgan natijalarning amaliyotga joriy etilishi, ilmiy nashrlarda e'lon qilinganligi va dissertatsiyaning tuzilishi borasidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tilshunoslikda milliy-madaniy xususiyatlarga ega til birliklariga doir tadqiqotlarning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobi **“Tilshunoslikda lingvomadaniyatshunoslik masalalari tadqiqi va uning nazariy asoslari”**; **“Tarjimashunoslikda til va madaniyat masalalari”**; **“Milliy-madaniy leksik birliklarning mahalliy va xorijlik olimlar tomonidan qilingan tahlili va tasnifi”** kabi uch fasldan iborat. Bobda tilshunoslikda lingvomadaniyatshunoslikning o'rganilishi va uning asosiy tushunchalari, tarjimashunoslikda til va madaniyat masalalari tadqiqi hamda milliy-madaniy leksik birliklarning dunyo olimlari tomonidan keltirib o'tilgan tavsifi, tasnifi haqidagi fikrlar o'rganilgan, munosabat bildirilgan.

Ma'lumki, barcha davrlarda tadqiqotchilar uchun til o'rganish masalasi tadqiqot obyekti sifatida o'z dolzarbligini yo'qotmagan va ushbu soha serqirra hisoblangan. Dastavval uning kommunikativ jihati tadqiqotchilar diqqatini jalb etgan bo'lsa, keyinroq tilning ijtimoiy, madaniy hayot va milliy tafakkurdagi o'rni haqidagi ilmiy qarashlar olg'a surila boshladi. **“Til bu nafaqat insonni o'rab turgan haqiqiy mavjudlik va haqiqiy yashash sharoitlarini, balki ijtimoiy o'zini anglash, ma'naviyat, milliy xarakter, turmush tarzi, urf-odatlar, axloq, qadriyatlar yig'indisi,**

odamlarning dunyoqarashini aks ettiruvchi madaniyat ko'zgidir"⁶. "Til bizning hayot tarzimizni tavsiflovchi ijtimoiy meros qilib olingan malaka va g'oyalarning majmui sifatida madaniyatdan tashqarida mavjud bo'lolmaydi"⁷. Til madaniyatning tarkibiy qismi bolib, u insonning fikrlash shakli va aloqa vositasi hisoblanadi.

"Lingvomadaniyatshunoslik madaniyatshunoslik va tilshunoslik kesishgan nuqtada shakllangan til tadqiqining yangi sohasi sifatida XX asr so'nggida kirib keldi"⁸. "Lingvokulturologiya madaniyat va tilning o'zaro aloqasini, o'zaro ta'sirini, tilda o'z aksini topgan xalq madaniyatining ko'rinishlarini tadqiq etadi"⁹. "Xalqlar o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniyatlararo munosabatlarni shakllantirish doirasida boshqa tillarning jozibadorligi va o'rganilishi ortib bormoqda. Boshqa tillarni o'rganish esa o'sha xalqning madaniyatini o'rganishga, ya'ni boshdan kechirishga imkon beradi"¹⁰. Shu ma'noda til va madaniyatning o'zaro ta'sirini o'rganish so'nggi paytlarda dolzarb masalaga aylandi hamda lingvomadaniyatshunoslik deb ataluvchi maxsus yo'nalish paydo bo'ldi. Bu yo'nalishdagi muammo va mutanosibliklarni tadqiq hamda tahlil qilgan, tasniflagan, qiyosiy va chog'ishtrima izlanishlarni amalga oshirgan, turli konseptlar doirasida til va madaniyatning etnos bilan bog'liq rivojlanish tendensiyalarini turli nuqtayi nazardan yoritgan xorij hamda rus olimlari bilan bir qatorda o'zbekistonlik olimlar ham talaygina. Jumladan, keyingi davrlarda Sh.Safarov, D.Ashurova, A.Mamatov, R.Shirnova, D.Baxronova, Z.Teshaboyeva, N.To'xtaxodjayeveva, D.Xoshimova, U.Yo'ldoshev kabi qator olimlar o'z tadqiqotlarida ushbu masalani yoritishga harakat qilganlar¹¹.

Badiiy asarlarda asar mansub xalq madaniyati, qadriyatleri, an'ana va urf-odatleri, mentaliteti, rasm-rusumlarini anglatuvchi shunday milliy-madaniy leksik birliklar mavjudki, ularning tarjimasida muqobil variantlar topishda har doim qiyinchiliklarga duch kelinadi. Masalan, A.Qahorning barcha asarlarida o'zbek xalqiga xos milliy-madaniy leksikani juda ko'plab uchratish mumkin, masalan: "O'tmishdan ertaklar"da kelgan: *"Hovliga yig'lab kirdim. Onam yuragi yorilguday bo'lib yuzimga suv sepdi, ho'l ko'ylagimni yechib tashlash ham esiga*

⁶ Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. – Toshkent, 2019. – B. 7.

⁷ Сепир Э. Язык. Введение в изучение речи // Избранные труды по языкознанию и культурологии. – С 185.

⁸ Хамрохонова S. Dunyoning lingvomadaniy manzarasi va uning tilda aks etishi // Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения, 2022. Т. 1. – № 29. – С. 25-30.

⁹ Xudoyberganova N. Tarjimaning lingvomadaniy masalalari. – Toshkent, 2016. – B. 19

¹⁰ Komilova G. T. Lingvokulturologiya yangi soha sifatida // Экономика и социум, 2021. – № 12-2. – С. 1022.

¹¹ Сафаров Ш. Таржимашуносликнинг когнитив асослари. – Тошкент: Наврўз, 2019. – 300 б.; Ашурова Д.У. Лингвистическая природа художественного сравнения. Автореф. дис. канд. филол. наук. – М., 1970. – 22 с.; Маматов А. Zamonaviy lingvistika. – Toshkent, 2019. – 170 б.; Ширинова Р. Олам миллий манзарасининг бадий таржимада қайта яратилиши. Филол. фан. д-ри дисс. – Тошкент, 2017. – 240 б.; Вахронова D. Antropozoomorfizmlarning semantik va lingvokulturologik xususiyatlari (o'zbek va ispan tillari materialida). Filol. fan. bo'yicha falsafa dokt. (PhD) diss. – Toshkent, 2017. – 157 б.; Тешабоева З. "Бобурнома"нинг инглизча таржималаридаги фразеологик бирликлар ва уларнинг миллий-маданий хусусиятлари. Филол. фан. ном. дисс. – Тошкент, 2017. – 158 б.; Тухтаходжаева Н. Бадий таржимада лингвокултуремаларнинг ифодаланиши (инглиз ва ўзбек тиллари мисолида). Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) дисс. – Тошкент, 2007. – 141 б.; Хошимова Д. "Бобурнома" матнидаги тасвирий воситаларнинг инглиз тилига таржималари тадқиқи. Филол. фан. д-ри ... дисс. – Т., 2018. – 265 б.; Йўлдошев У. Ҳажвий матнлар таржимасининг лингвостилистик ва лингвокултурологик хусусиятлари (инглиз тилига таржима қилинган ўзбек халқ латифалари мисолида). Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) дисс. – Тошкент, 2017. – 163 б.

kelmay, latta yoqib boshimdan aylantirib tashladi-**alasladi**. Shundan keyin bir hafta ko'chaga chiqqani ijozat bo'lmadi. Yana bir kuni, eshigimiz oldida **loyparsilloq** o'ynab o'tirgan edim. Bularning **kizagi** qizil ko'k shapkasiga, chakkasida hurpayib turgan sochiga, kiyim-boshi va **shop-sholopiga** qarab angrayganimcha ergashib ketaveribman"¹², matnida **alasladi/moq** fe'lining badiiy adabiyot va xalq og'zaki ijodida "olos-olos", "oloslamoq", "alas-alas qilmoq" yoki "olos-olos qilmoq" variantlari ham ko'p qo'llaniladi. Izohli lug'atda bu leksemaning ikki xil qo'llanishi keltirib o'tilgan: 1. Og'ir yotgan bemorni "davolash" maqsadida tayoqcha uchiga o'rab yondirilgan lattani yoki bemorning kiyimini uning boshidan o'girish; 2. Kishiga ilashgan jin, ajina va sh.k. dan xalos bo'lish uchun safar oyida gulxan yoqib, ustidan sakrash¹³. Bundan tashqari parchada **loyparsilloq**, **kizagi** kabi o'zbek leksikografiyasiga mansub milliy-madaniy til birliklarini uchratsih mumkin. Milliy urf-odatlar, madaniyat, tarixdan bexabar tarjimon bu so'zlarni boshqa tilga tarjima qilish yoki asliyatga yaqin ma'noni beruvchi leksemalarni topishida qator muammolar kelib chiqadi, o'girilayotgan til kishilik jamiyatida ham shunday marosim bo'lganmi yoki yo'qligini tekshirish, yoinki qaysi usul tarjima asarni o'quvchiga asliyat mazmunidek to'laqonli yetkazib berishga xizmat qilishini bilishi zarur hisoblanadi. Matndagi "kizagi", "kizak" – do'ppining tepasi va jiyagi o'rtasidagi qismi, gardishi¹⁴ hisoblanadi. *Kizak* so'zi etimologik jihatdan "bukur", "bukchaygan joy" ma'nosini anglatuvchi tojikcha "**ko'z**" so'ziga kichraytirish ma'nosini ifodalaydigan *-ak* qo'shimchasini qo'shib hosil qilingan va o'zbek tilida *-o'* tovushi *-i* tovushiga almashib ketgan¹⁵. Ba'zan so'zdagi milliy-madaniy ma'no, tarixiy jarayon, etimologik tagma'no unutilib, asosiy e'tibor undan so'ng kelgan jumlagi, bu o'rinda esa "*ko'k shapka*" so'ziga qaratilishi va odatda tarjimada bunday asosiy milliy-madaniy leksika (bu o'rinda *kizagi qizil*) "unitib" qoldirilishi ehtimoldan xoli emas.

Asarlarni tanitishda, ularni har tomonlama ochib berishda tarjimonga tarjimashunoslik sohasida amaliy va nazariy tadqiqot olib borgan olimlarning izlanishlari katta yordam beradi. Bunday tadqiqotlar natijasida tarjimaning asliyatga yaqin bo'lishini ta'minlovchi turfa usullar taklif etiladi, turli izohli, sinonimik va h.k. lug'atlar yaratiladi. Shunday bo'lsa-da, muayyan asarni tarjima qilayotgan tarjimonning o'rnini hech bir narsa bilan tenglashtirib bo'lmaydi, bu uning mahorati, so'z boyligi, o'girilayotgan til jamiyatining stereotiplari, milliy-madaniy xususiyatlaridan qanchalik xabardorligi, tarjima jarayonida duch kelingan muammolarni yechishda eng maqbul usulni tanlay olishida yorqin ko'rinadi. Bu jarayonda tarjimon faqat lug'atlar bilan ishlashni emas, balki voqealar tafsiloti, asar muallifi tegishli zamon va makon: xalq tarixi, folklori, adabiy manbalari, til xususiyatlarini ham mukammal bilishi talab etiladi.

S.Moemning bir qancha asarlari o'zbek tiliga tarjima qilingan, masalan, "Yomg'ir" hikoyasidagi "*Believe me, my heart bleeds for the unfortunate woman,*

¹² Абдулла Қаҳҳор. Ўтмишдан эртақлар. –Т.: Янги Аср Авлоди. 2017. – Б. 23.

¹³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. – Тошкент: 2006-2008. 1-ж. – Б. 67.

¹⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. – Тошкент: 2006-2008. 3-ж. – Б. 364.

¹⁵ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент, 2009. – Б. 121.

but I'm only trying to do my duty.” parchasi Alisher Otaboyev tarjimasida “– *Ishoning, boyaqish ayolni o‘ylab yuragim tilka-pora bo‘lyapti*”¹⁶ tarzida o‘girilgan. Asl matndagi “*my heart bleeds*” jumlasini adekvatligini ta’minlash uchun tarjimon “*parcha-parcha*”, “*mayda-mayda qilingan*”, “*tilka-tilka*”, “*tilka-pora*” kabi sinonimik qatordan “*tilka-pora*” juft so‘zini tanlagan. Mashina tarjimasi (Google tarjima) *my heart bleeds* birikmasini so‘zma-so‘z *yuragim qon to‘kadi* deb o‘giradi. Tarjimada “yuragi qon bo‘lmoq” iborasi ham ishlatilishi mumkin edi, biroq tarjimon “yuragi tilka-pora bo‘lmoq” iborasini afzal ko‘rgan. Shuningdek, o‘zbek tilining o‘ziga xos boyligi bu, juft so‘zlarning mavjudligidir. Juft so‘zlar harakatni keskin, kuchli tarzda yuz berishini ifodalaydi, uning ekvivalenti boshqa tillarda deyarli uchramaydi. Q.Musayev ta’kidlaganidek, “badiiy tarjimada qo‘shimcha stilistik bo‘yoqdorlikni aks ettirish nafaqat asliyat va tarjima tillarining uslubiy xususiyatlarini, balki asliyat va tarjima tillari hamda adabiyotini ham yaxshi bilishni taqozo etadi”¹⁷. Badiiy tarjimada, shuningdek, tarjimaning lingvistik xususiyatlaridan tashqari ekstralingvistik xususiyatlari ham alohida o‘rin tutadi. Asliyat va uning tarjimasi, tildagi shaxsiyat va milliy-madaniy kolorit kabilarni o‘rganish bilan birgalikda asar muallifi ko‘zda tutgan pragmatik jihatlarni ham e’tiborga olishimiz zarur.

Tarjimashunoslikning fan, san’at va tafakkur uyg‘unlashgan o‘z qonun-qoidalari mavjud. Tarjimon asarning tub mohiyatini anglamay, qahramonlar dunyoqarashini to‘liq his qilmay turib, asarda qo‘llangan so‘z va iboralarning muqobilini to‘g‘ri tanlay olmaydi, o‘zi anglab yetmagan asar ruhiyatini o‘zgariga yetkazib berolmaydi. Odatda turli tizimli tillar kesimida o‘zaro tarjimada milliy-madaniy belgilar mos kelmasligi ko‘p uchraydi. Ayniqsa, bu holat tilning turg‘un birikmalari – iboralar, tasviriy ifoda va maqol-matallar tarjimasida yanada dolzarblashadi. Ma’lumki, tilning turg‘un birikmalari shaklan sintaktik qurilishli bo‘lishi bilan birga mazmunan umumiy semantik butunlikka egadir. Tarjima jarayonida muayyan o‘zgarishlar – asl matn uslubi va ifodasidan uzoqlashishlar ro‘y berishi mumkin, bular ko‘proq ekstralingvistik vositalar, aniq yoki yashirin tarzda milliy mentalitetni u yoki bu darajada ifoda etgan birliklar mazmunida kuzatiladi.

Milliy-madaniy o‘ziga xoslik leksikaning turli qatlamlarida ifodalanadi. Bunday leksik birliklar inson va uning hayotining barcha rang-barangliklarini aks ettiradi. Sh.Safarovning qayd etishicha, “har bir shaxsning lisoniy qobiliyati va muloqot malakasi ma’lum madaniyat hududida, madaniy muhitda shakllanadi va faollashadi. Shunday ekan, insonning tafakkur va lisoniy faoliyati jarayonida yuzaga keladigan birliklarning strukturaviy hamda mazmuniy sathlarida madaniy elementlarning aks etishi tabiiydir”¹⁸. Demak, muayyan tilda bitilgan asarlarda u tegishli xalq madaniyati, qadriyatlarini, an’ana va urf-odatlarini, mentalitetini, rasm-rusumlarini anglatuvchi leksik birliklarni tarjima qilish tarjimon uchun qiyinchiliklar tug‘dirishi tabiiy.

¹⁶ Моэм С. Ёмғир (ҳикоя). Алишер Отабоев таржимаси. – Т.: Академнашр, 2014. – Б. 53.

¹⁷ Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Т.: Фан, 2005. – Б. 35.

¹⁸ Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 65.

Tarjima nazariyasida fon bilimlar milliy-madaniy o‘ziga xosliklar sifatida talqin qilinadi. A.Fedorovning fikricha: “Qiyoslanayotgan til va madaniyatlardagi fon bilimlar bu boshqa mamlakat, boshqa xalq hayotida vujudga kelgan tasavvurlar majmuasidir. Bunday tasavvur va hayotiy tajribalar orqali to‘plangan fon bilimlar turli tillardagi turfa tasavvurlarga asoslanadi”¹⁹. A.Sokolov esa, “ularning mohiyati asliyat va tarjima matnlarining turli darajadagi retsepiyentlarga mo‘ljallanganligi bilan ham izohlanadi”²⁰, deb yozadi. Tarjimada pragmatik adekvatlikning muhimligini ta’kidlagan Yu.Nayda va Ch.Taberlarning fikricha, “asliyat tili vakillari va tarjima tili vakillarining mentalitetlaridagi ijtimoiy-madaniy farqlar matnni to‘liq idrok qilishga yo‘naltirilgan ekvivalentlik, ya’ni lisoniy muqobilliklar haqida gapirish imkoniyatini beradi”²¹.

O‘zbekistonda so‘nggi yillardagi lingvomadaniyatshunoslikka oid tadqiqotlarda asosiy e’tibor lingvomadaniy birliklar tadqiqiga qaratilmoqda. F.Usmanovdan keltirilgan fikrga ko‘ra, “o‘zbek tilidagi turg‘un o‘xshatishlar semantikasida milliy-madaniy konnotatsiyaning o‘rni aniqlab berildi. O‘xshatish etaloni vazifasini bajaruvchi obrazlar lingvomadaniy yondashuvda guruhlashtirildi va lingvomadaniy kodlar nuqtayi nazaridan yoritildi, o‘zbek tilidagi turg‘un o‘xshatishlarning tahlili asosida o‘zbek millatining madaniy me‘yorlari hamda aksiologik munosabatiga xos jihatlar aniqlandi”²².

Dissertatsiyaning **“Abdulla Qahhor asarlaridagi milliy-madaniy xususiyatlar va ularning tarjimada aks etish masalalari”** deb nomlangan ikkinchi bob “Abdulla Qahhor asarlarida individual-mualliflik manzarasida milliy-madaniy xususiyatlarning o‘ziga xos ifodalanishi” va “Abdulla Qahhor asarlaridagi madaniy kodlarni inglizchaga tarjima qilishdagi muammo va uning yechimlari xususida” kabi ikki fasldan iborat. Bobda Abdulla Qahhorning individual-mualliflik manzarasi, adib asarlarida madaniy kodlarning qo‘llanishi va ularning tarjimasi, tarjimadagi qiyinchiliklar va yechimlari haqida so‘z yuritilgan.

O‘zbek adabiyoti durdonalarining xorijiy tillarga tarjima qilinishi va ularning jahon adabiyoti xazinasidan munosib o‘rin egallashi ulkan ahamiyatga ega. Albatta, bunda tarjimaning sifati, uning badiiy saviyasi, asl nusxadagi milliy ruhni qayta yaratishda tarjimon mahorati muhim omil hisoblanadi. Ma’lumki, har bir tilning o‘z qonuniyatlari bo‘lib, bir tilda jarangdor so‘z, ibora, boshqa tilga so‘zma-so‘z o‘girilganda bo‘yoqdorligini yo‘qotishi, jumla esa “rangsizlanib” qolishi mumkin. Ba’zan tarjimonning qaysidir so‘zni tushirib qoldirishi, jumlani soddalashtirishi yoxud fikrning kitobxonga asliyat kabi tushunarli bo‘lishi uchun nimanidir qo‘shishi, hatto jumlani ortiqcha bezab yuborishi ro‘y beradi.

Abdulla Qahhor har bir asarida tagma’no, ko‘chim, kinoya, kesatiq kabilarni keng qo‘llagan. Masalan, *“Uyda tovush chiqarmaslik uchun Marg‘uba tishini*

¹⁹ Федоров А.В. Основы общей теории перевода (Лингвистические проблемы). – СПбГУ, 2002. – С. 41.

²⁰ Соколов А.Н. Прагматические аспекты перевода метонимии в поэтических текстах. Автореф. дисс. ... канд. филолог. наук. – Тюмен, 2004. – 24 с.

²¹ Eugene Nida, Charles Taber. The theory and practice of translation (4th impr.). – Leiden-Boston, 2003. – 220 p.

²² Худойберганава Д. “Ўзбек лингвомаданиятшунослигининг долзарб муаммолари” / “Ўзбек тилини дунё микёсида кенг тарғиб қилиш бўйича ҳамкорлик истиқболлари” мавзусидаги Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. – Тошкент, 2020. – Б. 23.

tishiga qo‘ygan sayin Javlon haddidan oshaverdi”²³. Bu jumladagi tishini tishiga qo‘ymoq iborasi chidamoq mazmunida ishlatilgan. Ingliz tilida “tish” bilan bunday ibora yo‘q, o‘xshash “get one’s teeth into (so‘zma-so‘z: kimningdir tishini ichiga qo‘ymoq)” idiomasi esa “biror narsaga to‘liq kirishmoq; qiziqish bilan shug‘ullanmoq” ma’nosini beradi. Masalan, “He finally has a project he **can get his teeth into**”²⁴ misolidagi bu iboraga muqobil tarzda “tishi o‘tmoq” iborasini qo‘llash mumkin: “Nihoyat u **tishi o‘tadigan** loyihaga ega bo‘ldi”. Ingliz tilidagi “more than flesh and blood can endure” iborasini esa “tishini tishiga qo‘yib chidamoq” o‘rniga ishlatish mumkin: *The mental and physical torture from insomnia is **more than flesh and blood can endure*** (Uyqusizlikdan kelgan ruhiy va jismoniy azoblarga tishimni tishimga qo‘yib chidayapman).

Abdulla Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar” asarining amerikalik tarjimon Kristofer Fort tomonidan ingliz tiliga tarjimasining e’tiborli jihatlaridan biri – o‘zbek tiliga xos lingvistik va madaniy unsurlarni, xususan, joy nomlari va milliy-madaniy so‘zlarni tarjimada asl holida saqlab qolganligidadir, jumladan, Nursuq, Qudash, Tolliq, Olqor, Yug‘unzor, Oqqo‘rg‘on kabi joy nomlarida “o‘”, “q”, “g” tovushlarining tarjimada asl holida qoldirilishi va ko‘plab milliy-madaniy xususiyatlarni jamlagan leksik birliklarini, izohlash orqali yoritilishi, masalan, “Munojot”, “tashqari”, “ichkari”, “nomahram”, “dodxoh”, “Olim buva”, “somosa”, “Hamroqul-qori”, “yosh gvardiya”, “paranji” va h.k. Tarjimonning bu yondashuvi tarjimada muhim ilmiy va lingvistik strategiyaga asoslanib amalga oshirilgan²⁵.

A.Qahhorning asarlarida o‘zbek tili bor bo‘y-basti bilan namoyon bo‘ladi, bevosita o‘quvchi tasvirlangan voqe’lik ishtirokchisiga aylanadi.

Lingvokulturologik tadqiqotlarda “madaniy kod” termini keng ishlatilmoqda. Zero, “Olamning milliy-madaniy manzarasini ochishning kaliti sifatida madaniy kod tushunchasidan foydalanish tushunish qiyin bo‘lgan xalq kommunikatsiyasining o‘ziga xos tomonlarini yoritib beradi. Demak, madaniy kod – u yoki bu madaniyatni tushunishning kaliti; xalqlarga ajdodlardan qolgan noyob madaniy xususiyatlardir; biron-bir shaklda kodlashtirilgan madaniyatning “ichki sirlarini” ochish imkonini beradigan axborotdir”²⁶. V.Maslovaning fikricha, “madaniy kod bu olamning milliy manzarasini tashkil etuvchi umuminsoniy va milliy o‘ziga xos hodisalarni ichiga olgan tarmoq, u signallar repertuari va shu bilan birga madaniy bilimlarni shakllantirish usulidir”²⁷.

Manbalarda madaniy kodlarni madaniyat atrofidagi “to‘r” deb ta’riflash, ajratish, turkumlash, tuzish va baholash haqida gap boradi. V.Krasnixning fikricha, “madaniy kod eng qadimgi arxetiplar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqador bo‘lgan insonning g‘oyalari hisoblanadi”²⁸. Madaniy kodlar bevosita ibora va frazeologizmlarda yashaydi. Chunki “tilning frazeologik fondi xalq madaniyati va

²³ Абдулла Қаҳҳор. Муҳаббат. Қисса. – Тошкент: Ғафур Ғуллом, 1988. – Б. 10.

²⁴ <https://www.merriam-webster.com/dictionary/get%20one%27s%20teeth%20into>

²⁵ <https://www.oeaw.ac.at/sice/sice-blog/abdulla-qahhors-theses-from-the-past>

²⁶ Бахронова Д.К. Антропозооморфизмларнинг семантик ва лингвокультурологик хусусиятлари (ўзбек ва испан тиллари материалида). Филол. фан. д-ри. дисс. – Тошкент, 2017. – Б. 56.

²⁷ Маслова В.А. Лингвокультурология. Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М., 2001. – 208 с.

²⁸ Красных В.В. Коды и эталоны культуры (приглашение к разговору) // Язык, сознание, коммуникация. Вып. 19. – М., 2001. – С. 9.

mentalitetining qimmatli ma'lumotlar manbasi sanaladi. Frazologizmlarda muayyan xalqning miqlari, udumlari, rivoyatlari, taomillari, urf-odatlari, ma'naviyati, axloqi haqidagi tasavvurlari mujassamlashgan bo'ladi. Frazologizmlarning semantikasida xalq madaniy rivojlanishining uzoq jarayoni aks etadi"²⁹.

Xalqlar turmush tarzini ifodalovchi leksik birliklar shak-shubhasiz badiiy merosning milliy-madaniy bo'yog'ini aks ettirishi bilan o'ziga xos ahamiyatga ega. Odatda, tarjima qilinayotgan matnda muayyan etnosning milliy-madaniy ruhiyati yashaydi. Bu holning tarjimada tushib qolishi pragmatik noadekvatlikni keltirib chiqaradi. Ushbu "*Yetti qavat parda ichida o'tiradigan o'z xotini esa bular qarshisida ko'ziga farishta bo'lib ko'rinadi: namoz o'qiydi, to'pig'idan yuqorisini avrat hisoblab, jiyakli ishton kiyadi...*" matni "*Yet his own wife, who sits behind seven layers of curtains, appears angelic to him: she performs namaaz and even wears pants with **jiyak**, believing that anything above her ankles is 'awrah' ...*" tarzida tarjima qilindi. Matndagi "*Yetti qavat parda ichida o'tiradigan*" iborasi milliy-madaniy bo'yog' bilan boyitilgan, asosan, o'zbek millati uchun xos bo'lgan va oson tushuniladigan ibora, aynan bu jumla pragmatikasida ibo-hayoni saqlagan, omma ko'ziga kam ko'ringan holat ifodalanadi. "Ovrat" so'zi tarjimada transliteratsiya usulidan foydalanib "awrah" deb berildi, chunki bu so'z arabcha bo'lib, u ingliz tilida "awrah; aurat"³⁰ tarzida asarlarda uchraydi, lug'atlarda izohi keltirilgan. "Jiyakli ishton" birikmasidagi "jiyak" so'ziga ayni muqobil topilmagach, izoh berish usulidan foydalanildi.

Ma'lumki, "tarjima bir tildagi matnni boshqa tilda qayta yaratishdan iborat adabiy ijod turi. Demak, tarjima madaniyatlar va millatlararo muloqotning eng muhim ko'rinishi. Asliyat va qayta tiklangan matn xususiyatiga qarab badiiy tarjima, ilmiy tarjima va boshqa turlarga ajratiladi. Asl nusxani aks ettirish tarziga ko'ra tafsir, tabdil, sharh kabi ko'rinishlarga ham ega bo'lishi mumkin. "Tarjima sifatiga bo'lgan talablar yangilanib borishi ortidan uning ijodiy xarakteri, qayta yaratish san'ati ekanligi o'zgarmaydi. Tarjimaning ko'lami va taraqqiyoti har bir xalqning ma'rifiy darajasiga bog'liq va, o'z navbatida, u millatning ijtimoiy tafakkuriga samarali ta'sir etadi"³¹. Agar so'z yoki iboralarning lingvokulturologik xususiyatlari tarjima tilida noto'g'ri talqin etilsa, tarjimaning umumiy mazmuniga putur yetkaziladi. Tarjimalarning birida to'liq in'ikosini topmagan so'zlar ikkinchi bir tarjimada o'z ifodasini topishi mumkin. Ba'zan tarjimalarda mutarjimlar ijodkorlikka beriladi, ayrimlarida sharh va izohlarga keng o'rin ajratiladi.

"*Hayvon! Sigir emas, hayvon! – dedi og'ilning eshigini qattiq yopib. Hayvon!*" *Xotini Mukarram hovlida samovarga suv quyur edi. – Hayvon! – dedi Baqoyev, bu sigirni sotib puliga cho'chqa olish kerak! – Shaharda cho'chqa asrash mumkin emas, dedi Mukarram samovarga ko'mir solayotib*" (A.Qahhor, *Adabiyot muallimi*). Tarjimasi: "*What an animal!*" *he exclaimed. "This is not a*

²⁹ Свирепо О.А. Метафора как код культуры. Дис. ...канд. филос. наук. – Ростов н/Д, 2002. – С. 38.

³⁰ https://en.wikipedia.org/wiki/Intimate_parts_in_Islam

³¹ Чибилова М.Л. Художественный перевод и проблема национального колорита (на материале русских переводов осетинской поэзии второй половины XX века). Дисс. ... канд. филолог. наук. – Владикавказ, 2005. – С. 34.

cow: it's a beast," he said, slamming the door shut. His wife, Mukarram was pouring water into the **samovar** to make some tea. "What an animal!" Baqoyev said again. "We have to sell this cow and buy a pig instead." "We cannot keep a pig: it is not allowed in the city", Mukarram said, as she was putting coal in the samovar (A.Qahhor. *The literature teacher*, 2013: 26). Bu matnda tarjimon transliteratsiya usulidan foydalanib o'zbek madaniyatiga rus tilidan o'zlashgan "samovar" so'zini "samovar"ligicha qoldirgan. Boisi bu so'zning inglizcha aynan muqobili yo'q va u Cambridge Dictionaryda ham **samovar** tartibida keltirib izohlangan: *a large metal container used, especially in Russia, to heat water for tea*³². Shuningdek, asl matnda "og'il" so'zi ikki marta ishlatilgan, tarjimada esa 1-marta "barn", ya'ni lug'atga ko'ra "ombor, omborxon" tarzida, 2-bora esa umuman tushib qoldirilgan: "slamming the door shut" – "eshikni qarsillatib yopmoq". Izohli lug'atlarda "og'il" – "uy hayvonlarini saqlash va boqish uchun qurilgan maxsus bino; molxon, og'ilxon"³³. "Ombor" esa "Oziq-ovqat, asbob-anjom, mol (mulk) va sh.k. saqlanadigan bino"³⁴ mazmunida keladi. Ko'rinadiki, tarjimon bunday holatlarda kalkalash, sharh yoki izoh berish orqali tarjima adekvatligini ta'minlashi mumkin. Tarjima bu biror bir asliyat tilida yaratilgan ma'lumot (matn)ning tuzilishi, nutqiy ifodasi, mazmunini boshqa bir tilning vositalariga tayangan holda asliyatdagidek qayta yaratish jarayonidir.

Leksik ekvivalentlik: Ko'pgina o'zbekcha so'zlarning inglizcha mos ekvivalentini topish murakkab masala sanaladi. Masalan, "nomahram" so'zining ingliz tiliga to'liq mos tushadigan varianti mavjud emas, chunki bu so'z nafaqat jinsiy farqlarni, balki diniy va madaniy tushunchalarni ham o'zida aks ettiradi. Bunday so'zlar tarjima jarayonida ularning asl ma'nosini, konnotativ jihatlarini va madaniy ahamiyatini yo'qotish xavfini tug'diradi. Shu bois, "O'tmishdan ertaklarda"gi quyidagi parchani o'girishda tarjimon **tashqari (hovli), nomahram, ichkari (hovli)** birikmalarini o'z holidan qoldirishni ma'qul ko'rgan: In his narrow courtyard of his *tashqari*, my mother sowed and planted aster, gagea, basil, and savory. The garden, enclosed by the mud walls of the courtyard, reminded of a swallow's nest. A little door separated the house from the courtyard and the windows of the house were covered with oiled paper to prevent the wayward glances of *nomahram* passersby. This left the inside of the house so dark that those inside could only guess at the identity of one another. The courtyard of Olimbuva's *ichkari* was also small and covered in vines, the thickness of which trapped the heat in the summer. Day and night his wife noisily span thread on her spinning wheel³⁵.

Dissertatsiyaning "**Somerset Moem asarlarida milliy-madaniy qadriyatlar va ularning tarjima muammolari**" deb nomlangan uchinchi bobi "Somerset Moemning individual-mualliflik manzarasida milliy-madaniy xususiyatlarning ifodalanishi" va "Somerset Moem asarlaridagi milliy-madaniylikni ifodalovchi

³² https://dictionary.cambridge.org/ru/B9/samovar#google_vignette

³³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1 жилд. – Москва, 1981. – Б.562

³⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1 жилд. – Москва, 1981. – Б.536

³⁵ <https://www.oeaw.ac.at/sice/sice-blog/abdulla-qahhors-ales-from-the-past>

leksik birliklarning o‘zbekcha tarjimalarda aks etish masalalari (chog‘ishtirma tahlillar asosida)” kabi ikki fasldan iborat.

Har qanday yozuvchi milliy nutq madaniyatining tashuvchisi va yaratuvchisidir. Tarjimon muallif yashab o‘tgan davrning leksik birligidan foydalanadi, asar tili, g‘oyasi va o‘zining tajribasidan kelib chiqib turli til vositalarini tanlaydi hamda birlashtiradi. Yozuvchi o‘z individualligini kalit so‘zlar, sintaktik konstruksiya va stilistik texnikasi orqali ifodalaydi. O‘quvchi asarni tili, uning leksik va frazeologik tarkibi, grammatik tuzilishi, obrazlari, lug‘at texnikasi va qahramonlarining so‘zlashuv nutqi orqali qabul qiladi hamda baholaydi.

S.Moem individual uslubining o‘ziga xos tomonlari asarlarining nomlanishida ham namoyon bo‘ladi. Masalan, “The Painted Veil” (Bo‘yalgan parda) romanining nomi shunchaki asarning semantik yadrosi emas. U intertekstual xususiyatga ega va alohida qiziqish uyg‘otadi. Bu nom nafaqat kuchli hissiy yuk, balki yetakchi kompozitsion rolga ham ega. Sarlavhaning pozitsion ko‘rinishini saqlab qoladi, iqtibos esa butun asarning asosiy qismiga aylanadi³⁶. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, asarda na “*The Painted Veil*” (Bo‘yalgan parda) birikmasi, na sarlavhadagi allegorik maqsad uchun olingan “*Veil*” so‘zi takrorlangan. Biroq romanda semantik jihatdan “*veil*” so‘ziga semantik yaqin “*curtain*” so‘zi ishlatilgan. Ushbu leksik birlik to‘g‘ridan-to‘g‘ri atrofdagi qahramonlarning tafsilotlariga ishora qiluvchi nominativ ma’noni ifodalagan: “*But in the day-time, protected by the curtains of her chair, she allowed herself to give way*”³⁷. “*Curtain*” (parda) so‘zi bevosita sarlavhaga semantik aloqadorligidan tashqari, mazmunan ham bog‘liq: Kitti (asar qahramoni) illyuziya va xurofot *pardasini* yirtib tashlaydi, hayot *pardasi* bir lahzaga ko‘tarilib, u o‘zi orzu qilgan dunyoni ko‘radi.

“*It was as though the corner of a curtain were lifted for a 39 moment and she caught a glimpse of a world rich with a colour and significance she had not dreamt of*”³⁸. Bu matnda “*curtain*” so‘zi “*to lift the curtain over smth*” – “*biror narsaning pardasini ko‘tarmoq*” iborasining bir qismini ifodalagan. Bir vaqtni o‘zida “*veil*” so‘zini “*curtain*” deb qo‘llanilishi “*hayotni teatr bilan taqqoslash (sahna pardasi)*” yashirin ma’nosini ham bergan. S.Moem o‘z asarlarida o‘sha davrning muhim ijtimoiy masalalarini ilgari suradi, dolzarb muammolarga yechim topishga harakat qilayotgan zamonaviy inson psixologiyasini ko‘rsatadi.

Tilshunoslarning fikricha, “til millatning madaniy kodidir”³⁹. Semiotikaga kiruvchi kod va madaniy kod terminlari U.Eko, Yu.Stepanov, Yu.Lotman, V.Teliya, V.Krasnix, Ye.Brazgovskaya, A.Nurmonov va Sh.Usmanova tomonidan muayyan darajada o‘rganilgan. “Lingvomadaniyatshunoslik fanga lingvomadaniy birlik, lingvomadaniyat, lingvomadaniy hamjamiyat, milliy-madaniy konnotatsiya, madaniy sema, pretsedent birliklar, lisoniy ong, olamning lisoniy manzarasi kabi

³⁶Кизилова Т. О специфике аллюзивных заглавий литературных произведений // Язык, сознание, коммуникация. Сб. статей. – М.: Диалог-МГУ, 2000. Вып. 12. – С. 74.

³⁷ Maugham S. The painted veil. – United Kingdom, 1981. – P. 7.

³⁸Maugham S. The painted veil. – United Kingdom, 1981. – P. 10.

³⁹ Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Асадемия, 2001. – 208 с.

bir qator yangi tushunchalar olib kirdi. Ular qatorida madaniyat kodlari tushunchasi alohida mavqega ega⁴⁰. Til birligi bilan madaniyat, turmush tarzi, milliy xarakter va boshqalar o'rtasida (tasvir, metafora, asosli iboralar orqali) bevosita bog'liqlik bor.

Buyuk Britaniyani dengiz o'rab turganligi bois dengiz bilan bog'liq kasblar hamda unga bog'liq leksika ko'p bo'lishi tabiiy. Masalan: *“a great ship asks deep waters”* iborasi (so'zma-so'z *“katta kema chuqur suvlarni so'raydi”*) mazmuni *“aqlli yo'ldosh sayoz odamlardan va yuzaki fikrlardan saqlaydi”* qabilida tushuniladi. O'zbek tilida *“Dono bilan yursang yetarsan murodga, nodon bilan yursang qolasan uyatga”*, *“Katta karvon – katta yo'l”* kabi ekvivalentlari mavjud.

S.Moem asarlarida dengiz, suv, kema tushunchalari bilan aloqador frazeologik birliklar ko'p uchraydi: *“Of course I could have got it done cheaper, but Mrs. Owen strongly recommended him, and I thought it wasn't worth while to spoil the ship for a coat of tar”*⁴¹. Bu jumladagi *“to spoil the ship for a coat of tar”* iborasi so'zma-so'z *“bir palto uchun kemani buzmoq”* ma'nosini beradi. *“Burgaga achchiq qilib ko'rpa kuydirmoq”* yoki *“arzimagan narsa tufayli qimmatli narsani buzmoq/yo'q qilmoq”* kabi ekvivalentlari mavjud. Ushbu parchani o'zbek tiliga *“Albatta, men bu ishni arzonroq bajarishim mumkin edi, lekin missis Ouen qat'iyat bilan uni tavsiya qildi va men burgaga achchiq qilib ko'rpani kuydirishning keragi yo'q degan qarorga keldim”* tarzida tarjima qilish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, bir xil milliy madaniyat bo'lmagani kabi bir xil yoki hatto ayni bir madaniy predmetni aks ettiruvchi bir xil idrok obrazlari ham mavjud emas. *“Bir madaniyatdan boshqasiga olib o'tilgan mazkur predmetning yoki hodisaning qiyofasi har doim o'zida milliy-madaniy o'ziga xoslik elementini olib o'tadi”*⁴². Madaniyatda shakllangan qadriyat tushunchalarining turli usullarda kodlashtirilishi madaniyat kodlari tizimini tashkil etadi. Bu tizim, umuman, olamning milliy lisoniy manzarasini hosil qiladi. Anglashiladiki, madaniy kodlar xalqning milliy-madaniy xususiyati bilan bog'liq hodisa hisoblanadi. Madaniy kod o'zida qadriyat, milliy-madaniy urf-odat va me'yorlarni shartli ravishda aks ettiruvchi, ramziy va kodlangan tarzda ifodalovchi belgilar tizimidir. Madaniy kod o'sha millat tili, tarixi, ruhiyati, yashash tarzi haqida ma'lumotlarni eslatib turuvchi model vazifasini bajaradi. Yu.Markovina, *“til birinchi navbatda madaniyat ifodasi bo'lib, ham aloqa vositasi, ham odamlarni ajratish vositasi sifatida xizmat qiladi. Til – madaniyatning ma'lum bir jamiyatga mansubligini ko'rsatadi, o'z navbatida, uning milliy o'ziga xos tarkibiy qismlari orasida turadi”*⁴³, deb yozadi.

*“Milliy madaniy birliklarning tarjimasiga nazariy ishlarda, har bir tarjima qo'llanmasida, ayniqsa, badiiy, publisistik, ijtimoiy-siyosiy matnlarni tarjima qilishda, qiyosiy tilshunoslik bo'yicha ko'plab nashrlarda katta e'tibor berilgan”*⁴⁴. Bu bilan bog'liq muammolar turli yo'llar bilan ko'rib chiqiladi, turli xil tarjima

⁴⁰ Худойберганава Д. Лингвокултурологияда маданий код тушунчаси ва талқини // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2019. – № 3. – Б. 15.

⁴¹ W. Somerset Maugham. Of Human Bondage. 1995. – P. 351.


⁴² Дмитрюк Н.В. Формы существования и функционирования языкового сознания в негомогенной лингвокультурной среде: Автореф. дисс. ... д-ра. филол. наук. –М.: ИЯз РАН, 2000. – С.23.

⁴³ Марковина И. Культура и текст. –Москва: Медиа, 2010. – С. 10.

⁴⁴ Саломов Ф. Таржима назарияси асослари. Ўқув қўлланма. –Т.: “Ўқитувчи” нашриёти, 1983. –Б.23.

usullari va fikrlar tavsiya etiladi. Albatta, bu holatda barcha uchun aniq, standart, bitta yechim bo‘lmasligi tabiiy hol. Vaziyatga qarab turli xil yondashuv talab qilinadi. Masalan, *“Then he had seen his wife and Mrs. Davidson, their deck-chairs close together, in earnest conversation for about two hours. As he walked past them backwards and forwards for the sake of exercise, he had heard Mrs. Davidson’s agitated whisper, like the distant flow of a mountain torrent, and he saw by his wife’s open mouth and pale face that she was enjoying an alarming experience”*⁴⁵ parchasi *“Badantarbiya qilib, ularning ko‘z o‘ngida u yoqdan bu yoqqa yurib turgan doktorning qulog‘iga labi-labiga tegmay pichirlayotgan missis Devidsonning hayajonli ovozi uzoqdagi sharsharaning shovullaganidek eshitildiki, xotining og‘zi ochilib rangi quv o‘chganidan vahimali gaplarni eshitayotgani sezilib turardi”* tarzida tarjima qilingan. Tarjimon jumlaning jozibali, ta’sirchan chiqishi, aslyiat matnini qayta yaratishda muallif fikridan uzoqlashmaslik niyatida so‘z qo‘shish, antonimik almashtirish kabi usullardan foydalangan. Tarjima biroz kengaygan, ko‘pirtirilgan, ammo mazmun muqobil variantni bera olgan, sifatlashdan o‘rinli foydalanilgan, matniy qofiya yaratilgan: *“agitated whisper, like the distant flow of a mountain torrent”* – *“labi-labiga tegmay pichirlayotgan”* va *“open mouth and pale face that she was enjoying an alarming experience”* – *“og‘zi ochilib rangi quv o‘chganidan vahimali gaplarni eshitayotgani sezilib turardi”* kabi. Milliy madaniy lisoniy birliklar tarjimasida mutarjimlar S.Moem va A.Qahhor hikoyalarida aksar hollarda quyidagi tarjima usullaridan foydalanganlari ma’lum bo‘ldi. Transkripsiya va transliteratsiya usuli Abdulla Qahhor hikoyalarining tarjimalarida ustunlik qilsa, ijodiy tarjima S.Moem asarlari tarjimalarida ko‘proq kuzatildi. Ibora va milliy madaniy birliklarning muqobil variantidan foydalanish hamda kalkalash usullari esa ikki tarjima matnlarida teng qo‘llangan.

S.Moem asarlari asosan rus tilshunos va adabiyotshunos olimlari tomonidan keng o‘rganilgan. Jumladan, Moemning *“The Painted Veil”* va *“Rain”* hikoyalari rus tilshunos olimi Yu.Golubeva ilmiy rahbarligi ostida epitet (38,8 %), metafora (19,9 %), takrorlash, qiyoslash (9,8 %) usullaridan foydalanilganini foizlarda ko‘rsatib bergan⁴⁶.



1-diagramma. A.Qahhor va S.Moem asarlarida qo‘llanilgan tarjima usullari

⁴⁵ W. Somerset Maugham. Rain. – N. Y., 1980. – R. 79.

⁴⁶ Голубева Ю. Лингвостилистическая репрезентация любви и смерти в романе У.С.Моема “разрисованный занавес”. – Белгород, 2016. – С. 66.

Ushbu tadqiqotda S.Moemingning “The Painted Veil”, “Rain”, “Theatre” kabi, A.Qahorning “Adabiyot muallimi”, “O‘g‘ri”, “Dahshat”, “Mayiz yemagan xotin” kabi asarlari chog‘ishtirildi, o‘zaro farqli va o‘xshash tomonlari yoritildi.

Shunday qilib, milliy madaniy va o‘ziga xos voqelikni anglatuvchi leksemalarning uzatilishi turli yo‘llar bilan amalga oshiriladi, jumladan, tarjimada tavsiflash usulidan kengroq foydalaniladi. Tegishli nomlar sifatida yaratilgan leksemalar transliteratsiya va transkripsiya orqali tarjima matniga aylantirilishi mumkin. Ba‘zi hollarda kalkalash (to‘liq yoki to‘liq bo‘lmagan) qo‘llaniladi. Muayyan madaniy o‘ziga xosliklarni ekvivalenti bo‘lmaganda lug‘aviy ma‘no madaniy semasini dekodlash kerak bo‘ladi hamda turli etimologik, leksikografik, etnografik, madaniy va boshqa manbalar asosida tarjima amalga oshiriladi.

XULOSALAR

1. Dunyo hamjamiyatida milliy o‘zligini saqlab qolish uchun harakat qilayotgan har bir millat va xalq uchun ma‘naviyat masalasi eng muhim ahamiyatga ega jihatlardan biridir. Haqiqatan ham, ma‘naviyatga bo‘lgan e‘tibor kelajakka, millat istiqboliga e‘tibor bo‘lib hisoblanadi. Til va adabiyot esa ma‘naviyatning eng chuqur sarchashmasi hisoblanib, ular orqali jamiyat ongi yuksaladi, taraqqiyot sari dadil odimlaydi. Shu jihatdan olganda Abdulla Qahhor va Somerset Moem o‘zlari tegishli bo‘lgan xalqning milliy-madaniy xususiyatlari, urf-odatlari va tafakkur tarzini yorqin namoyon etgan ijodkorlardir.

2. Har qanday xalqning, millatning millat sifatida tanituvchi eng muhim vositasi bu uning til va madaniyatidir. Har ikki tushuncha muntazam bir-birini taqozo etadi va uzviylikda rivojlanadi. Tilsiz madaniyatni ommalashtirish, rivojlantirish mumkin emas, o‘z o‘rnida madaniyat ham til rivojida, boyishida ulkan ahamiyatga ega. Antropotsentrik tilshunoslikda yangi-yangi sohalarining yuzaga kelishi asnosida matn lingvistikasi muammosining o‘rganilishi ham dolzarb masala hisoblanmoqda. Shu nuqtayi nazardan bugungi kunda olimlar semantika, kognitologiya, psixolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik kabi sohalar kesimida matn tadqiqiga yondashmoqdalar. Bir davrda yashab ijod etgan buyuk adiblar – Abdulla Qahhor va Somerset Moem asarlari matnini turli rakursda o‘rganish tilshunoslik oldida turgan dolzarb vazifalardandir.

3. Badiiy asarlar asli va tarjimasini lisoniy tahlili – nutq yaratuvchi va uni idrok etuvchi shaxs omilining lisoniy faoliyatda qanday o‘rin tutishini aniqlash bo‘lsa, ikkinchi tomondan, matnning semantik, lingvomadaniy xususiyatlarini yanada chuqurroq o‘rganishdir. Shunday masala sifatida hozirgi kunda tilshunoslik ilmida barchaning e‘tiborini tortayotgan til va madaniyat tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lgan, lingvomadaniy masalalar ko‘pchilik tilshunos olimlar tomonidan tadqiq etilayotgan bo‘lsa-da, biroq to‘laqonli o‘z yechimini topgan emas. Abdulla Qahhor va Somerset Moem asarlarida ifodalangan *tildagi shaxsiyat* – bu aniq bir til egasi, u tomonidan matn, nutqda qo‘llangan til ayni shaxs tafakkurida olam qanday qabul qilinganini aks ettiradi, ya‘ni u yozma va og‘zaki nutqida o‘z-o‘zini xarakterlaydi,

ifodalaydi. Individual-mualliflik manzarasida milliy lisoniy shaxs yaqqolroq aks etadi, u orqali muayyan bir madaniyatga, davrga baho berish imkoni paydo bo‘ladi.

4. Turli tizimli tillardagi hikoya yoki asarlarni boshqa bir oilaga mansub tilga tarjima qilishda uchraydigan bir talay muammolar mavjud. Abdulla Qahhor asarlaridagi *paranji, kundosh, sixmushak, qamishmushak, bozorshab, samovar (choyxona), loyparsilloq, qizagi qizil, sandal, keli, kelisop, chimmat* singari o‘zbek tiliga xos madaniy kodlarni M.Saydumarova, K.Fort, Sh.Sattorov kabi tarjimonlar tarjimalarini o‘rganish asnosida kalkalash, transliteratsiya, izohlash, tavsiflash kabi usullardan; xuddi shunday Somerset Moem asarlaridagi *“To pull a stuff, you can’t kid me!”*, *“A shot of hooch”*, *“Grip (handful / bag)”*, *“Rye”*, *“Trenches”*, *“Lectern”*, *“state”* *“cowboy”* kabi milliy-madaniy leksik birliklarini o‘zbek tiliga o‘g‘irishda ekvivalentlik, umumlashtirish, transliteratsiya, adaptatsiya kabi usullardan ko‘proq foydalanganliklari oydinlashdi. Tarjimaning ko‘lami va taraqqiyoti har bir tarjimonning ma’rifiy darajasi, so‘z boyligi, asliyat va ona tilini qay darajada egallaganligi kabi qator omillarga chambarchas bog‘liq.

5. Kristofer Fort Abdulla Qahhorning *“O‘tmishdan ertaklar”* asarini ingliz tiliga tarjima qilishda o‘zbek tiliga xos milliy-madaniy unsurlarni, joy nomlari va milliy leksikani asl holida saqlash orqali nafaqat asarning mazmun jihatini, balki uning milliy-madaniy-tarixiy o‘ziga xosligini ham ingliz tilida yetkazishga muvaffaq bo‘lgan. Bu jarayonda tarjimon lingvistik ekvivalentlik, madaniy markazlashuv va transliteratsiya kabi metodlardan foydalanib tarjimani amalga oshirgan. Ahamiyatli tomoni, bu usullar nafaqat o‘zbek adabiyotini xalqaro ilmiy maydonga olib chiqish yo‘lida muvaffaqiyatli tajriba sifatida, balki o‘zbek tilidagi *“o”*, *“g”*, *“q”* kabi harflar misolida o‘ziga xos alifbo va ohangga egaligini ham dunyo hamjamiyatiga tanishtirishi bilan e’tirbarga loyiqdir.

Mark Rees kabi ingliz tarjimashunoslari o‘zbek alifbosining bir necha marta o‘zgartirilayotganligi tufayli o‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjimada qiyinchiliklar keltirib chiqarayotganligini ta’kidlashadi, ayniqsa, fonetik aspektidagi tarjima transformatsiyalarining til siyosati bilan bog‘liq jihatlarini ko‘rib chiqish zamon talabi va dolzarb muammo ekanligi kun tartibida qolmoqda.

6. Ingliz yozuvchisi Somerset Moem hayotda ko‘rganlarini murakkab psixologik jarayonlar orqali sodda va tushunarli tarzda ifodalagan. O‘zbek tiliga A.Otaboyev tarjimalari originallikka uyg‘un bajarilgan, o‘quvchiga ingliz atmosferasini his qilish darajasida amalga oshirilgan. Tarjimalarda sof milliy, ammo mazmun saqlanishini ta’minlagan *“tepa sochi tikka bo‘ldi”*, *“rangi quv o‘chgan”* kabi iborlarni qo‘llagan.

7. Tadqiqot natijasida ma’lum bo‘ldiki, o‘zbek tiliga bevosita ingliz tilidan tarjimalar u qadar ko‘p emas, ammo rus tili vositasida amalga oshirilgan tarjimalar anchagina. Shuningdek, o‘zbek adabiy asarlarini rivojlangan dunyo tillariga, jumladan, ingliz tiliga tarjima qilish bo‘yicha talay muammolar bor. Buning asosiy boisi til va madaniyatlaaro interferensiya, ekvivalentsiz leksikaning ko‘pligi, madaniy kodlarning muqobili yo‘qligi kabi muammolar tarjimaga qo‘l urishning murakkab jarayon ekanligini tasdiqlaydi hamda eng dolzarb masala – xorijiy

tillarni mukammal biluvchi badiiy tarjimonlar maktabining shakllanmaganligida ko‘rinadi.

8. O‘zbek adabiyotida Abdulla Qahhor eng mashhur hikoyanavis bo‘lsa, ingliz adabiyotida Jek Londondan keyin Somerset Moem shunday maqomga ega. Abdulla Qahhor va Somerset Moem hikoyalarida adiblar yashagan davr hamda xalq madaniyati durdonalari – turli ko‘chim va iboralar ustamonlik bilan qo‘llangan, ba’zi iboralar esa umumlisoniy tushunchalar sirasiga kirib, chog‘ishtirilayotgan tillarda izomorf va allamorf, odatiy va noodatiy konseptual belgi-xususiyatlar, muvofiq ravishda kognitiv semalarga egaligi kuzatildi. Matnlar tarjimasidagi tahlil qilingan lisoniy birliklar sodda va murakkab tuzilishga ega leksik, frazeologik, morfologik, sintaktik va paremiologik birliklardan iborat bo‘lib, ular turli yorqinlik darajasiga ega, kommunikativ vaziyatlarda xoslangan yoki xoslanmagan belgi xususiyatlarni obyektivlashtirish yoki dekodlashtirish va turli diskurslarda qo‘llash uchun xizmat qiladi.

9. Ingliz va o‘zbek frazeologik birliklarining aksariyati madaniy kod sifatida ajralib turadi, ular mazmunini til egasi yoki tilni mukammal bilgan mutaxassisgina tushuna olishi mumkin. Bunday iboralar tarjimondan katta mas’uliyat talab etadi. Ularni o‘zga tilga muallif nuqtai nazaridan yetkazib bera olishda izohlash, tavsiflash kabi usullardan foydalanish asar tili jamiyatini o‘quvchiga tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi. Demak, muayyan jamiyat olam lisoniy manzarasini yaratishda frazeologizmlar alohida o‘rin tutadi.

10. Abdulla Qahhor asarlarida milliy-madaniy kolorit va mohiyatni tushunarli tasvirlash maqsadida *halqa*, *taloq*, *avrat* kabi o‘zlashma so‘zlardan ko‘p foydalanilgan. Tadqiqot davomida ingliz tilida bu lisoniy birliklarning ayni muqobil varianti mavjud emasligi oydinlashdi, shu bois ularni “awrah”, “talaq”; “halqa” shakllarida, yoki tarjimaning transformatsiya va transliteratsiya usullarini qo‘llash orqali ingliz tiliga o‘girish maqsadga muvofiq.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УЗБЕКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ ИМЕНИ АЛИШЕРА НАВОИ**

ДЖАЛИЛОВА УМИДА ТУЛКИНОВНА

**НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЯЗЫКА
ПРОИЗВЕДЕНИЙ АБДУЛЛЫ КАХХАРА И СОМЕРСЕТА МОЭМА:
ОРИГИНАЛ И ПЕРЕВОД**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и
переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ ПО
ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ (PhD)**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией Республики Узбекистан № В2022.4.PhD/ФН2934.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном университете узбекского языка и литературы имени Алишера Навои.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском) на сайте Узбекского государственного университета мировых языков (www.uzswlu.uz) и на информационно-образовательном портале «Ziyouet» (www.ziyouet.uz).

Научный руководитель:	Бахронова Дилрабо Келдиёровна доктор филологических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Садиков Зоҳид Якубжанович доктор филологических наук, профессор
	Хомидов Хайрилло Худойёрович доктор филологических наук, профессор
Ведущая организация:	Самаркандский государственный институт иностранных языков

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета за DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 при Узбекском государственном университете мировых языков « 8 » апреля 2025 года в 10⁰⁰ часов. (Адрес: 100138, город Ташкент, улица Кичик Халка Йули, квартал Г-9А, 21. Тел.: (71) 230-12-91; факс: (99871) 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru).

С диссертацией можно ознакомиться в Центре информационных ресурсов Узбекского государственного университета мировых языков (зарегистрирован под номером 1168 Адрес: 100138, город Ташкент, улица Кичик Халка Йули, квартал Г-9А, 21. Тел.: (71) 230-12-91; факс: (99871) 230-12-92).

Автореферат диссертации разослан « 24 » марта 2025 года.
(протокол реестра № 5 от « 24 » марта 2025 года).




И.М.Тухтасинов
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.и.н., профессор

Х.Б.Самигова
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.н., профессор


Дж.А.Якубов
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.ф.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировой лингвистике язык изучается как отражение бытия, сложное социальное явление, отражающее все природные и социальные явления. Явления окружающей среды разнообразны и каждое из них имеет отдельную природно-социальную характеристику, функцию и значение. Тот факт, что язык находится в постоянной эволюции, своеобразная форма и содержание, место и функции явлений в языках требуют их последовательного изучения в сравнительном и сопоставительном направлении. В результате сравнительное исследование лексики языков, анализ лексики родного языка в сравнении с разными языками, включая правильную интерпретацию культурных и социальных явлений и отношений в общении, анализ уникального лексического фонда каждого языка, исследование проблем создания двух- и многоязычных словарей и согласования оригинала с переводом приобретают все большее значение.

В мировом языкознании активно проводятся такие исследования, как анализ определенных языковых явлений, создание лингвистического обеспечения искусственного интеллекта в области информационно-коммуникационных технологий, совершенствование переводов, изучение перевода в связи с такими науками, как социолингвистика, лингвокогнитивистика, лингвокультурология, составление толковых и отраслевых словарей. В настоящее время развитие межнациональной интернационализации, интеграции, особенно в разрезе языков, требует проведения фундаментальных исследований. В связи с этим на повестке дня остаются вопросы языка и культуры, выражение национально-культурных особенностей в художественной литературе каждого народа, вопросы обеспечения их адекватности в переводе, необходимость совершенствования научно-исследовательских работ в этих направлениях.

В результате открытости нашей страны для мирового сообщества, расширения объема обмена информацией в период реформ, активного вхождения в мировую глобализацию не только растет потребность в обучении и изучении иностранных языков, но и поэтапно осуществляются различные исследования по переводоведению, в том числе увеличиваются объемы создания произведений с совершенными переводами, в том числе «перевод 100 лучших художественных произведений, ежегодно читаемых в мире, а также перевод и доставка в библиотеки»¹. При этом актуальным считается сопоставление лексического, метафорического и паремиологического фонда узбекского языка с английским языком, проведение научных исследований, направленных на критическое изучение и совершенствование культурных кодов, лексических и фразеологических

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.02.2024-yildagi PF-37-sonli "O'zbekiston = 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni. // <https://www.lex.uz/uz/docs/-6811936>

единиц, специфичных для этносов в зарубежной литературе, оригинальных и переводных текстов.

Данное исследование в определенной степени служит исполнению задач, отмеченных в Указе Президента Республики Узбекистан УП-5850 от 21 октября 2019 года «О мерах по коренному повышению престижа и положения узбекского языка как государственного», Постановлении ПП-№5117 от 19 мая 2021 года «О мерах по выведению деятельности по популяризации изучения иностранных языков на качественно новый уровень в Республике Узбекистан», Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан №312 от 19 мая 2021 года «О мерах по эффективной организации популяризации изучения иностранных языков», №34 от 19 января 2022 года «О дополнительных мерах по совершенствованию обучения иностранных языков», УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», а также в других нормативно-правовых актах.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики:

I. «Социально-правовое, экономическое, культурное, духовно-просветительское развитие информационного общества и демократического государства, развитие инновационной экономики».

Степень изученности проблемы. Вопросы словарного богатства языка всегда находились в центре внимания ученых. Значительный вклад в развитие переводоведения в узбекском языкознании внесли такие ученые, как Г.Саломов, К.Мусаев, Н.Камбаров, А.Нурмонов, Н.Махмудов, М.Холбеков, Ш.Сафаров, И.Тухтасинов, Х.Хомидов, З.Тешабоева, У.Йулдошев. В частности, проблемы языка и культуры в анализе художественного текста, происходящие обновления и изменения в переводе текста языка, на котором написано произведение, вопросы поиска адекватных вариантов культурных кодов разносистемных языков нашли свое отражение в исследованиях ряда ученых, Н. Камбарова, Д. Бахроновой, Г. Амановой, Т. Алимова. Лингвокультурологические и когнитивные особенности переводочных трансформаций исследованы О.Муминовым и Н.Камбаровым, актуальные проблемы современного преподавания переводоведения - И.Тухтасиновым, сравнительно-сопоставительный анализ переводов произведений Бабура на английский язык - З.Тешабоевой, лингвокультурологические особенности перевода сатирических текстов - У.Йулдошевым и лингвокультурологический аспект перевода общественно-политических слов Г.Амановой². К национально-культурным особенностям

² Саломов Ф. Тил ва таржима (бадий таржиманинг умумфилологик ва баъзи лингвистик масалалари). – Тошкент: Фан, 1966. – 385 б.; Саломов Ф., Комилов Н. Дўстлик кўприклари (Поэзия ва таржима). – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – 224 б.; Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Фан, 2005. – 352 б.; Камбаров Н.М. Таржима трансформацияларининг лингвокультурологик ва когнитив хусусиятлари. Монография. – Тошкент, 2019. –158 б.; Нурмонов А. Оврупода умумий ва қиёсий тилшуносликнинг майдонга келиши// – Тошкент, 2-жилд, 2012. – Б.23-40.; Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари ни излаб ... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – 5-сон. – Б. 3-16.; Холбеков М. Жаҳон таржимачилиги

перевода: критерии точности перевода Т.Алимова, принципы перевода на английский язык антропонимов и топонимов национальной картины мира в тексте «Бабурнаме» М.Муминовой, вопрос языковых факторов в воссоздании национальной картины мира в переводе освещен в работах Р.Шириновой³.

Зарубежные ученые В.Фон.Хумбольдт, Е.Сепир; В.Телия, А.Потебня, В.Карасик, В.Маслова, С.Воркачѳ, В.Воробьев, В.Красных, З.Сабитова, Г.Багирова, В.Жирмунский, Ю.Лотман изучали семантические и национально-культурные особенности языка. Особенности художественного перевода изучены в исследованиях таких ученых, как П.Ньюмарк, М.Бейкер, Т.Херман, М.Жереми, Т.Паркс, Д.Шен, Ж.Винай, Ж.Дарбелнет, М.Винтерс, А.Федоров, Я.Рескер, Л.Бархударов, Т.Левискайя, В.Комиссаров, А.Фитерман⁴. Например, Е.Иванова изучала конвергенцию стилистических приемов в процессе перевода, Т.Фесенко и другие - описание

